

TOSHKENTNING UCH NUQTASI

YANGI VA ZAMONAVIY QIYOFADA

Prezident tashrifidan so‘ng

Poytaxtimizning qoq markazidan o‘tgan Bunyodkor ko‘chasini ko‘pchilik yaxshi biladi. Shayxontohur va Chilonzor tumanlarini bog‘lab turuvchi mazkur ko‘cha doim odamlar bilan gavjum. Atrofidagi qurilish va bunyodkorlik ishlari sabab bir necha yil oldin kelgan odam hozir bu yerlarni tanimay qolsa kerak. Yo‘l o‘sha, yo‘nalish o‘sha, avvaldan mavjud bo‘lgan san‘at va madaniyat maskanlari, ko‘p qavatli uylar, supermarket va restoranlar ham o‘shadek, ammo endi ularning atrofida zamonaviy binolar, o‘zgacha ko‘rinishdagi landshaft dizayni, yangi favvoralar paydo bo‘ldi. Bunyodkor ko‘chasining 1,5 kilometr qismi esa xizmat ko‘rsatish va gastroturizm ko‘chasiga aylantirildi.



Bu yerdagi 90 ta tadbirkorlik subyekti endi odamlarga tunu kun xizmat ko‘rsatadi. Gastroturizm ko‘chasida aholining sayr qilishi, ovqatlanishi, dam olishi uchun barcha qulayliklar bor. Shu yilning 10-iyul kuni davlatimiz rahbari Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari, aholining turmush sharoitlari, sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishishni ana shu ko‘chani ko‘zdan kechirishdan boshladi.

30 yillik mahalla yangi qiyofada

Negadir Bunyodkor ko‘chasidan o‘tishni yoqtiraman, yo‘lim shu tomonda bo‘lmasa ham, tez-tez o‘sha ko‘cha bo‘ylab yuraman. Qandaydir fayzli ko‘cha, atrofidagi “Xalqlar do‘stligi” san‘at saroyi, Milliy bog‘ va boshqa qator joylar avvaldan qadrlidi. Hozir ularning oldida yanada zamonaviy dam olish

maskanlari, baland binolar, yangi manzillar paydo bo‘lgan. Ko‘chaning yo‘l bo‘ylab qator ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish maskanlari tushgan bir qismi gastroturizm ko‘chasi sifatida odamlarga xizmat ko‘rsata boshlabdi. Alohida va o‘ziga xos landshaft dizayn qilingan. Ko‘chaga yondosh hududda Kamolon, Yangi Kamolon va Kamolon darvoza mahallalari bor. Ularda 18 mingga yaqin

aholi istiqomat qiladi. Fotograf sherigim bilan gastroturizm ko‘chasi bo‘ylab yurib, Yangi Kamolon mahallasini izladik. Oldimizdan o‘ng qo‘lga qayriladigan ko‘cha va katta arka chiqdi. Ana shu biz izlagan manzil. Sal ichkariga kirganimizdan keyin mahalla binosi ko‘rindi. Mashinani maxsus joyga qo‘yib, atrofini ko‘zdan kechira boshladik.

Davomi 3-beta

Kambag‘allikdan farovonlik sari

TARAQQIYOT MAHALLADAN BOSHLANADI

QACHONKI ODAMLARDA MEHNATSEVARLIK, INTILISH VA ISHTIYOQ BO‘LSA

Yaxshi yashashni hamma istaydi. Bunga esa teran fikr, astoydil mehnat va rejali amal bilan erishiladi. Odamlari boy mamlakat qudratli bo‘ladi. Yuritilayotgan siyosatimizning maqsadi ham fuqarolarni kambag‘allikdan chiqarish, ro‘zg‘orini obod qilish, bir so‘z bilan aytganda, hammani rozi qilish.

Bu haqda ko‘p va xo‘b gapirilayotgani bejiz emas. O‘tgan yillar davomida bu borada bir qancha me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi, ilg‘or tajribalar ommalashtirildi. Kimki nimani taklif qilayotgan bo‘lsa, avvalo, xalqni o‘ylayapti, yurtning ertasi uchun qayg‘uryapti.



Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalar ko‘rsatildi, dastur ishlab chiqilib, mas‘ullar belgilandi.

Farmon asosida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Dastur “Kambag‘al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas‘uliyat” tamoyili asosida amalga oshirilishi qayd etildi. Bu nima degani? Sodda qilib aytganda, tadbirkorlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatildi, 2024-2025-yillarda kambag‘al oilalar farzandlarini xorijiy tillarga, kasb-hunarga yoki mutaxassislikka o‘qitish uchun sharoit yaratildi.

Davomi 5-beta

MUQOBILI YO‘Q MANBA

UNI NA BOYLIK, NA KASHFIYOT BILAN YARATIB BO‘LADI

Odatda biror mavzu katta muammoga aylanib, ayanchli oqibatlar hayotimizda aks eta boshlagandan so‘nggina uning oldini olishga kirishamiz. Vaholanki, uning kelajak holati belgilari allaqachon ko‘rina boshlagan bo‘ladi.

Dunyo uchun umumiy dolzarb muammolardan biri suv ta‘minoti va taqisligidir. Bugun bu dolzarb muammogina emas, chegara bilmas, tom ma‘noda hayot-mamot masalasiga aylanganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Shu bois, nafaqat mahalliy, ko‘pgina

xalqaro anjumanlarda ham bu mavzu chetda qolmayapti, aksincha, mutatazam bong urilmasa bo‘lmaydigan mavzuga aylangan.

O‘tgan yil 20-noyabrda davlatimiz rahbari 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb nomlanishiga

alohida izoh bergan edi. Tabiiyki, mazkur izoh mohiyati tabiatni va uning tirikligi manbai bo‘lgan suvni asrab-avaylashga ham borib taqaladi.

Joriy yil aprel oyida Prezidentimiz Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan iqlim forumidagi ma‘ruzasida ham mavzuga alohida urg‘u berdi: “Biz allaqachon insoniyatning eng yirik fojialaridan biri — Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz. Biz suv resurslarini

tejash maqsadida irrigatsiya tizimlarini betonlashtiryapmiz. Suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat bazasini yaratdik, sug‘oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalarni joriy etdik (bu salkam ikki million gektar yer maydoni demakdir). Bunday chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili 8 milliard metr kub suvni tejashga muvaffaq bo‘ldik”.

Tadqiqotchilar suv tanqisligi kuchayayotganini, bir tomondan, aholi soni yil sayin oshib borayotgani, iqlim o‘zgarishi va sug‘orish tizimi eskirgani bilan bog‘lashadi. Infratuzilmani yaxshilash va suv tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, hanuz suv ta‘minoti barcha soha, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida va qator shaharlarimizda jiddiy muammoligicha qolayotir.

Davomi 4-beta

USHALAYOTGAN ORZULAR TANTANASI

Prezidentimizning shu yil 10-iyuldagi qarorida mamlakatimiz mustaqilligining ulkan ahamiyati inobatga olinib, milliy istiqbolimizning shonli sanasini yangi O‘zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro‘-e‘tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.



Sog‘liqni saqlash sohasiga bir nazar

Birgina sog‘liqni saqlash sohasini olib qaraydigan bo‘lsak, unda eng avvalo, inson qadri, salomatligi va yurt istiqboli uchun amalga oshirilgan ko‘pgina ijobiy o‘zgarishlarga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Davomi 2-beta

SPORTDAGI G‘ALABALAR O‘Z-O‘ZIDAN KELMAYDI

PREZIDENT QARORI ESA BUNGA MUSTAHKAM ZAMIN YARATADI

Aksariyat katta avlod vakillari bugungi yoshlarning o‘rnida bo‘lib qolgisi keladi. Ilm-fan, texnika, madaniyat, umuman, qaysi sohani olmaylik, ularga yaratilayotgan imkoniyatlarga havas bilan boqadi. Buning ortidan farzandim olim, san‘atkor, ayniqsa, mashhur sportchi bo‘lib, O‘zbekistonni butun dunyoga tanitsin, deydingan ota-onalar safi tobora kengayib borayotgani quvonarli. Chunonchi, mamlakatimiz sportida erishilayotgan olamshumul yutuqlar, buning ortidan bo‘layotgan dunyoviy e‘tiroflar ularni kun sayin ruhlantirayotgani aniq.

Davlatimiz rahbarining yaqinda qabul qilingan “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori sportchilar qatori ularning ota-onalariga ham ko‘tarinkilik ulashdi, desak xato bo‘lmaydi. Zero, qaror yangi tizimda, yangicha yondashuv bilan, g‘oyat chuqur o‘rganilgan holatda qabul qilingan tarixiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Qaror shu ma‘noda sport turlarini differensial yondashuv asosida rivojlantirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. Buning samarasi o‘laroq, endilikda respublikamiz bo‘ylab 254 ta sport maktabi, olimpiya yo‘nalishlariga ixtisoslashgan 56 ta sport maktabi milliy terma jamoalarga asosiy zaxira bo‘ladi. Zero, amaldagi natijalardan

kelib chiqqan holatda 44 ta olimpiya sport turi 3 toifaga bo‘lindi. Doimiy ravishda nufuzli musobaqalarda va olimpiadalarda medallarni olib kelayotgan 5 ta ustuvor sport turlarida medallar sonini oshirish vazifasi qo‘yildi. Chunki bu yo‘nalishlarda ish risoladagidek boryapti, murabbiylar yaxshi, o‘ziga yarasha strategiya ham, imkoniyat ham bor. 18 ta istiqbolli sport turlari bo‘yicha litsenziyani qo‘lga kiritganmiz. Shuning uchun bu borada medallar va litsenziyalar sonini oshirish belgilandi. 21 ta sport turlari bo‘yicha esa litsenziyalarga ega bo‘lishimiz kerak. Ayni maqsadda Sport vazirligi, Milliy olimpiya qo‘mitasi, barcha federatsiyalar rahbariyati va mutaxassislar bilan birgalikda qisqa va uzoq muddatli strategiyalar asosida maqsadli, tizimli va puxta ish olib boriladi.

Davomi 2-beta





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

# USHALAYOTGAN ORZULAR TANTANASI

va shaffoflik ortib boryapti. Har bir sohaga raqamli yechimlar joriy etilib, raqamli ta'lim platformalari ko'paymoqda.

Ilmiy-tadqiqot institutlariga davlat va xususiy sektor mablag'lari keng jalb etilib, yoshlar o'rtasida startap madaniyati shakllanmoqda. IT parklar va texnoparklar soni ko'paydi, xalqaro IT kompaniyalar bilan hamkorlik kengaydi. Eng muhimi, bolalar va yoshlarni dasturlash, robototexnika, sun'iy intellekt kabi sohalariga keng jalb etish maqsadida maxsus ta'lim dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu mamlakatimizning raqamli iqtisodiyot sari faol qadam tashlayotganini anglatadi.

Bugungi yutuqlarimizning barchasi yurtimizdagi izchil islohotlar, inson qadriini ulug'lashga qaratilgan oqilona siyosat hamda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning tirishqoqligi va yuksak salohiyati ifodasidir.

## Olimpiada va futbol tariximizda yangi sahifa ochdi

Keyingi yillar O'zbekiston sporti tarixida o'ziga xos burilish nuqtasi bo'ldi. Parij Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida sportchilarimiz ilk bor eng kuchli 15 jamoa qatoriga kirdi. Bu natija nafaqat sportchilarning mashaqqatli mehnati, balki davlat tomonidan yaratilgan keng imkoniyat va zamonaviy sport infratuzilmasi samarasidir.

Yana bir hayajonli voqea O'zbekistonning 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar terma jamoasi hamda futbol bo'yicha milliy terma jamoamiz qo'lga kiritgan tarixiy natijalar bo'ldi.

Ayniqsa, onkologiya, kardiologiya va



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



bolalar tibbiyoti kabi muhim yo'nalishlarda xalqaro standartlarga mos, yuqori texnologiyali davolash usullari amaliyotga keng joriy qilinmoqda. Eng asosiysi, yurtimizda kundan kunga zamonaviy tibbiy texnologiyalar, asbob-uskunalar bilan jixozlangan yangi shifoxonalar ko'payishi, eng chekka hamda olis qishloqlarda ham tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengaytirilishi soha rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

Natijada bolalar va onalar o'limi sezilarli darajada kamaydi, aholining umumiy salomatligi yaxshilandi. Bunda joylardagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida 8,4 million xotin-qiz tibbiy ko'rikdan o'tkazilgani, ulardan qariyb 2,5 million nafari ambulator va stasionar sharoitida sog'lomlashtirilgani katta samara berdi.

Sog'liqni saqlash bazisini raqamlashtirish, moddiy-texnik tizimini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari, aholining tibbiy madaniyati va savodxonligini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlar barchasi yurtodoshlarimiz sog'lig'i, ijtimoiy hayotini yaxshilashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'lmoqda.

## Innovatsiya va raqamli kelajakka qadam

Raqamlashtirish, IT va innovatsiyalar bugun O'zbekistonda taraqqiyotning strategik yo'nalishlariga aylanib ulgurdi. Bu sohalar iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, ta'lim, tibbiyot hamda boshqa ko'pgina sohalarda tub o'zgarishlar, ham davlat organlari, ham fuqarolar uchun birdek qulayliklarga yo'l ochyapti deyish mumkin.

Masalan, raqamlashtirish tufayli tezkor va shaffof davlat xizmatlari soni ortdi. Natijada jonli navbatlar soni qisqaryapti, elektron xizmatlarda inson omili kamayib, ochiqlik

yo'nalishlarida xalqaro festivallarda munosib ishtirok etilayotgani O'zbekistonning madaniy imijini mustahkamlamoqda. San'at orqali mamlakatimiz tarixi va bugunini jahonga tanitish borasida aniq qadamlar qo'yilmoqda.

Madaniy diplomatiya bugun O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yurtimiz madaniyati, xalqimiz urf-odatlari, asrdan asrga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarini va an'analarni aks ettirish va do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida maqom, baxshichilik, hunarmandlik kabi turli yo'nalishlarda xalqaro festivallarda tashkil etilyaptiki, bu xorijlik sayyohlar, san'atshunoslarda qiziqish uyg'otish bilan birga, o'zbek madaniyatini dunyoga tarannum etyapti. Bundan tashqari, O'zbekistonning xorijdagi madaniyat markazlarida o'zbek madaniyati kunlari, milliy kinofilmlarimiz namoyishi kabi tadbirlar o'tkazilmoqda. Chet el kinoteatrilarida namoyish etilayotgan oltin fondimizdagi "Suyunchi", "Mahallada duv-duv gap" kabi milliy kinofilmlarimiz orqali mamlakat tarixi, an'analari va zamonaviy hayoti haqida hikoya qilynapti.

Bir so'z bilan aytganda, bugun madaniy diplomatiya xalqaro maydonda betakror milliy liboslarimiz, o'zbek taomlari va jozibali raqslarimiz orqali "O'zbekiston brendi" yaratilishiga imkon yaratmoqda.

Keling, bir mulohaza qilib ko'raylik. Milliy meros obyektlari qayta tiklanishi, teatr, kino, adabiyot va rassomlik sohalarida yangi asarlar yaratilishi, yosh ijodkorlarga davlat grantlari hamda nufuzli mukofotlar berilishi... Bularning barchasi yurtimizda madaniyat va san'at sohasida keng qamrovli ishlarning amaliy mahsulidir.

Ko'p millatli jamiyatimizdagi tinchlik, o'zaro do'stlik va hamjihatlik muhiti, shubhasiz, bebaho boyligimiz. Mamlakatimizning Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi o'rni va nufuzi ortib boryapti. Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obro'-e'tibori va nufuzi tobora yuksalayotgani keyingi yillarda erishilgan katta yutuqlarimizdan.

Vatanimiz mustaqilligi tantanalari har yili davlatimiz rahbarining alohida qarori bilan keng nishonlanishi bejiz emas. Chunki har qanday millat va xalq uchun eng muqaddas qadriyat, shubhasiz, hurriyat, erkinlik, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidir.

**Vatanimiz mustaqilligi tantanalari har yili davlatimiz rahbarining alohida qarori bilan keng nishonlanishi bejiz emas. Chunki har qanday millat va xalq uchun eng muqaddas qadriyat, shubhasiz, hurriyat, erkinlik, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidir.**

O'smirlarimiz qit'amizda tengsiz ekanini isbotlagan bo'lsa, terma jamoamiz tarixida ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. E'tiborlisi, bu olamshumul voqelikni futbolsevar xalqimiz orziqib kutayotgandi. Nihoyat, futbol muxlislari va xalqimizning orzulari ushaldi.

Bu ulkan yutuq yurtimizda bolalar va yoshlar o'rtasida futbolni rivojlantirish, infratuzilmani yangilash va murabbiylar tayyorlash tizimi to'g'ri va maqsadli yo'lga qo'yilganidan dalolat. Sportchilarimizning dunyo sport arenalarda erishayotgan har bir yutuq'i xalqaro maydonda yangi O'zbekistonning ijobiy imijini yanada oshirish, nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## Ma'naviyat ko'zgusi yanada ravshanlashmoqda

Madaniyat sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar ham e'tiborga molik. Turli hududlarda yangi teatrlar, muzey va madaniyat markazlari ochilayotgani, iqtidorlarni yuzaga chiqarish borasida samarali faoliyat yuritayotgani katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Adabiyot sohasida ham yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, yangi asarlar nashri va targ'iboti yo'lida ko'plab ijodiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Milliy kino va musiqa

Mustaqillik qadri qanchalik betakror, oliy ne'mat ekanini so'z bilan ifodalash qiyin, albatta. Ayniqsa, bugun geosiyosiy vaziyat izdan chiqib, mamlakatlar xavfsizligiga tahdidlar kuchaygan bir paytda mustaqillik degan buyuk ne'matning qadri naqadar ulug'vorligini yurak-yurakdan his qilyapmiz. Shu bois, keksalarimiz har doim O'zbekiston mustaqilligi abadiy bo'lishini, tinchlik va osoyishtaligi bardavom bo'lishini tilab, duo qiladi.

Shu aziz yurt farzandi, milliy qonunchiligimiz ijodkori sifatida fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport va axborot texnologiyalari kabi ustuvor yo'nalishlardagi sa'y-harakatlar, o'zgarishlar bizni yanada aniq va ulkan maqsadlar sari yetaklaydi.

Islohotlar — bu jarayon. Uni samarali davom ettirish uchun nafaqat ijro organlari, balki xalq vakillarining faolligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada bizning eng katta umidimiz — xalq ishonchi. Biz ana shu ishonchni oqlash, har bir sohadagi yutuqlarni mustahkamlash va yangi imkoniyatlar yaratish yo'lida bor bilim, kuch-g'ayratimizni safarbar etamiz. Mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yillik bayrami biz yuqorida qayd etgan yutuqlarimiz, ushalayotgan orzularimiz tantanasi sifatida hayotimizning unutilmas damlariga aylanishiga shubha yo'q.



# SPORTDAGI G'ALABALAR O'Z-O'ZIDAN KELMAYDI

## PREZIDENT QARORI ESA BUNGA MUSTAHKAM ZAMIN YARATADI



Sherzod TOSHMATOV, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi raisi o'rinbosari

### Boshlanishi 1-betda

Jumladan, Olimpiya o'yinlari bosqichma-bosqich bo'ladi. Maqsad — quyi bo'g'inda qolib ketayotgan iqtidorli sportchilarni kashf etish. Buning uchun respublika musobaqalari "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" nomi bilan uch bosqichli tizimda o'tkaziladi. Ya'ni mintaqaviy, hududiy bosqich va Prezident olimpiadasi ko'rinishida.

Birinci bosqichda hududiy yaqin tuman va shaharlar birlashtirilib, mintaqalarga bo'linadi. Bunda o'rta ta'lim maktablaridagi to'garaklarda, sport klublarida shug'ullanayotgan iqtidorli sportchilar qamrab olinadi. Ular sport maktablari bilan raqobatlashadi. 1-, 2-, 3-o'rinlarni qo'lga kiritganlar ikkinchi — viloyat bosqichiga o'tadi. Bu bosqichda ixtisoslashtirilgan sport maktablari va maktab-internatlari ham qo'shilgan holda kurashiladi. 1-raqamli sportchilar Prezident olimpiadasiga yetib boradi. U yerda har bitta hududdagi Olimpiya va Paralimpiya markazlaridan sportchilar qo'shilib bellashadi. 1-, 2-raqamli sportchilar to'g'ridan to'g'ri respublika Olimpiya va Paralimpiya markazlariga joylashtiriladi. 3-o'rin egalari esa hududiy markazlarga yo'naltiriladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, markazlar kontingenti 600 nafardan 800 ga yetkaziladi. 1-2 bosqich talabalariga Sport vazirligining stipendiyasi joriy etilishi ham sportchilarni ma'lum ma'noda ruhlantiradi. Chunonchi, sportchi oilada birgina farzand bo'lishi mumkin. Unda, albatta, "Ota-onamni moddiy ta'minlashim kerak", degan tushuncha, mas'uliyat bo'ladi. Olimpiya va Paralimpiya markazlarida oziq-ovqat, yotoqxona bepul bo'lgani bois, sportchi stipendiyasini ota-onasiga yuborishiga va bor e'tiborini mashg'ulotlarga qaratishiga xizmat qiladi.

Xorij tajribasidan ham ko'rish mumkinki, agar sportchi chindan ham umidli bo'lsa, davlat unga yetarlicha va maqsadli mablag' ajratadi. Shundan kelib chiqqan holda, bizda ham hududlardan saralangan eng iqtidorli sportchilar uchun stipendiya ta'sis etish, albatta, o'zini oqlaydi. Xuddi asosiy terma jamoadagi kabi tajribali xorij murabbiylari va o'zimizning mahoratlari murabbiylar birgalikda sportchilarga o'quv-yig'in mashg'ulotlari olib boradi va ularning xalqaro musobaqalardagi ishtirokini ta'minlaydi. Eng kuchlilar nufuzli musobaqalarda qatnashadi, belgilangan natijalarga erishib, olimpiadaga yo'llanmani qo'lga kiritadi. Bu esa asosiy terma jamoaga katta xazira bo'ladi. Buning uchun har bir federatsiya ilg'or tajribalarni o'zlashtirishi, federatsiya vakillari xorijiy tuzilmalarga a'zo bo'lishi kerak.

musobaqa o'tgunicha emas, sportchi sikldan siklga bu rejimni saqlashi kerak.

Davriylik har to'rt yilda, biroq orada kompleks musobaqalar bo'lib turadi. Umuman olganda, sportchi va murabbiyning bir kunlik mashg'ulotiga guvoh bo'lganlar hech qachon ularga oson tutmaydi. Shuni quvonch bilan aytishimiz mumkinki, har tomonlama tajribali, o'z ishinings ustalari bo'lgan murabbiylarimiz, mutaxassslarimiz ko'p. Ularni terma jamoalarga jalb qilish orqali sezilarli o'sishga erishamiz.

Qarorni shu ma'noda ham tarixiy deb atash mumkinki, xususiy sport klublari ham ixtiyoriy tarzda reyestrnga kiradigan

bo'lsa, davlat ta'lim muassasalari sport inshootlaridan beg'araz foydalanishi mumkin. Sportchilar qamrovidan kelib chiqib davlat tashkilotlaridan tashqari ularga ham sport jihozlari inventarlari yetkazib beriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyat, tuman, shahar hokimlari har bir hudud bo'yicha vakillari, Milliy olimpiya qo'mitasining o'sha yerdagi bo'lim boshliqlari bo'ladi. Zero, sportchilarning o'quv-yig'in mashg'ulotlaridan tashqari, o'zlarining hududida olib boradigan sport faoliyati bo'ladi. Har ikki faoliyatini birdek ushulashda hokimlar yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Prezidentimiz qarori bilan yo'lga qo'yiladigan seleksiyani yangi tizimi biror-bir iqtidorli sportchining qolib ketmasligiga xizmat qiladi. Nasib qilsa, birinchi yilning o'zida 150 mingga yaqin qamrov bo'ladi. Faqat joylardagi va respublika sport tashkilotlari hamjihatlikda, odilona yondashish lozim. Xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsak, iqtidorli sportchimiz musobaqaga bormaydi. Buni hamma chuqur his qilishi kerak.



kengaytirib boraveramiz. Albatta, har bir federatsiya natijalari o'rganilib, tahlil qilib boriladi.

Aksariyat odamlar o'ylaganidek, sportda muvaffaqiyat qozonish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Sportchining bitta medalni qo'lga kiritishi ortida ko'pchilikning mehnati yotadi. Shunday sport turlari borki, sportchiga shaxsiy murabbiy va katta murabbiy kerak bo'ladi. Shuningdek, sportchi diyetolog, psixolog, shifokorning nazoratida, tartibli hayot tarzida yashaydi. Har bir sport turi bo'yicha mana shunday integratsiyani kuchaytirish kerak.

Sportchiga mas'ullarining o'z vazifalari ham to'g'ri taqsimlangan holda olib borilishi kerakki, buni professional murabbiy, albatta, biladi. Masalan, sportchi kechqurun o'z vaqtida uxlamasa, organizm kerakli ozuqani ololmaydi. Ertasi kuni bu uning asabiga ta'sir qiladi. Mumkin bo'lmagan holatlardan keyin ko'p miqdorda suv ichib yuborsa, yana muammo tug'iladi. Umuman, sportchida har xil holat bo'ladi. Aytaylik, shamollab qolishi mumkin. To'g'ri, kasallanish bilan bog'liq holatlarda qanday muolajalarni olib borish kerakligi yuzasidan o'quv yig'inlari, seminarlar tashkil qilinadi. Ammo yuqoridagi qaror bilan bu boradagi tezkorlikni ham oshirish ko'zda tutilyapti. Ya'ni sportchi qaysi dorini ichishi kerak? Uning tarkibida qanday modda borligini bilish uchun "koll markaz"lar tashkil qilinadi. Bu orqali sportchi 24 soat davomida ularga qo'ng'iroq qilib, dori haqida tezkor ma'lumot olishi mumkin. Zero, sportlom turmush tarziga amal qilish, rejimda yurish

Iqtidorli sportchilarni qancha qo'llasak, ota-onalarda shuncha ishonch ortadi, farzandini sport to'garaklariga olib boradi. Murabbiylar esa chinakam iqtidorni yetkazib bergani uchun ustama haqini oladi. Davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan foydalanadi. Hududlardagi sport maktablaridan tayyorlanib kelib, Olimpiya va Paralimpiya markazlariga joylashgan, nufuzli musobaqalarda yaxshi o'rinlarni oladigan sportchilarning birinchi trenerlari doimiy ravishda 10 foizdan ustama oladi. Shuningdek, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida to'langan stipendiyalar, mukofot pullari, turli xil to'lovlar, boshqa mablag'lardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha xarajatlar davlat byudjetidan qoplab berilishi belgilandi. Bu imtiyoz ilgari faqat 4 yilga, olimpiya sikli davomida berilgan. Bundan tashqari, tayyorgarlik jarayonida zarur bo'ladigan professional sport jihozlari, farmakologik vositalarni olib kirishda davlat bojidan ozod qilinadi.

Bularning baridan maqsad bitta — O'zbekiston sportini rivojlantirish, sportchilarimizga keng yo'l ochish, imkoniyatlar yaratish. Chunonchi, bu yo'lidagi ishlarimizga, xolisona yondashuvga guvoh bo'lgan yosh avlod orasida o'zbek sportining umidli vakillari ulg'aya boshlaydi. Bu esa, o'z-o'zidan sport sohasidagi sezilarli siljishlarga guvoh bo'lishimiz, yangi-yangi e'tiroflarni eshitishimizga xizmat qiladi.

21 ta ko‘p qavatli uydan iborat, 4600 dan ortiq doimiy aholi istiqomat qilayotgan poytaxtimizdagi Yangi Kamolon mahallasida insonlarning farovon yashashi uchun barcha qulayliklar yaratildi. Natijada joriy yilda mahalla yashil toifaga kirib, obod, xavfsiz, ishsizlikdan xoli hududga aylandi. Mahallani tomosha qilib, manzarasidan zavq olarkanman, aynan mana shu so‘z xayolimga keldi: qanday obod mahalla!



# TOSHKENTNING UCH NUQTASI

## YANGI VA ZAMONAVIY QIYOFADA

**Mahamadamin ERGASHEV, Shayxontohur tumanidagi “Yangi Kamolon” MFY raisi:**

— Mahallamiz ham tarixiy, ham zamonaviy manzil. Gap shundaki, tarixdan Toshkent shahrining 12 ta darvozasi bo‘lib, shulardan biri Kamolon darvozasi hisoblangan. Shu yerda Kamolon mahallasi ham bo‘lgan. Mustaqillikdan keyin — 1995-yilda o‘sha mahalladan alohida Yangi Kamolon mahallasi tashkil etildi. Shu voqega bu yil 30 yil to‘ldi. Aynan davlatimiz rahbarining topshirig‘i bilan bu mahallaning butunlay qayta ta‘mirlanib, obod qilingani yubileyga o‘ziga xos sovg‘a bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Va mahalla shu qadar o‘zgarib, yangi qiyofaga kirdiki, xuddi qaytadan tashkil etilgandek bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari mahallada, ayniqsa, aholi uchun yaratilgan ish o‘rinlaridan mamnun bo‘ldi. Hozir mahallamizda ishsiz odamning o‘zi qolmagan. O‘tgan yil oxirida mavjud 42 ishsizning barchasi ish bilan ta‘minlandi. Mahallamizga biriktirilgan bank tomonidan savdo do‘konlari qurib berilib, ular kam ta‘minlangan oila a‘zolariga foydalanishga topshirildi. Ushbu fuqarolar foydaga kirmaguncha, ularidan ijara haqi olinmaydi. Qolaversa, bu fuqarolarga do‘konni yuritish uchun imtiyozli kreditlar ham ajratildi. Shu yilning o‘zida mini loyihalar uchun 18 ta imtiyozli kreditlar berildi.

O‘tgan yili “Ayollar daftari”da 200 ga yaqin odam turgan bo‘lsa, shundan ishga layoqatli bo‘lganlarining bandligi to‘liq ta‘minlandi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga esa yordamlar ko‘rsatib kelinayapti. Bundan tashqari, mahallada 6 ta davlat tashkiloti bo‘lib, ularda



mahallalarda hokim yordamchilari, 2023-yilda yoshlar bilan ishlaydigan vakil, o‘tgan yili ijtimoiy xodim, soliqchilar kirib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning qatoriga “mahalla banki”lari qo‘shildi.

### Birorta ishsiz qolmadi

Ya‘ni endi ular “mahalla sakkizligi”ga aylandi. Birgalikda bir kuch bo‘lib, mahalladagi har bir fuqaroning bandligini ta‘minlash, muammolariga yechim berish, har qanday masalani mahallaning o‘zida, kerak bo‘lsa, fuqaro xonadonidan tashqariga chiqmagan holda hal etilishiga amaliy ko‘mak beryapti.

Mahallada tadbirkorlikka qiziquvchilar ko‘p, ammo aksarining mablag‘i yo‘q. Yangi savdo do‘konlari qurilib, kam ta‘minlangan oilalar a‘zolariga imtiyozli shartlarda berilgani ayni muddao bo‘ldi. Masalan, shu yerdagi ayollarning biri novvoyxonani olib, ish yuritaypti. Daromadi yomon emas — oyiga 10-12 million so‘m topyapti. Ikki kishini ish bilan ta‘minlagan. Non kunlik iste‘mol qilinadigan mahsulot, deyarli har bir xonadondan xaridor topiladi. Bir muddat shu yerda o‘tirib, kuzatdim. Novvoyning qo‘li go‘liga tegmaydi. Ayol bilan ham subhatlashdim. Oilasida 5 kishi istiqomat qilar ekan. Farzandlari hali kichik yoshda. Turmush o‘trog‘i va o‘zi shu novvoyxonani yuritaypti, asosiy daromadlari shundan.

Ochig‘i, bir loyihani o‘ylab topib, uni amalga oshirishning o‘zi ming mashaqqat. “Yangi Kamolon” MFY hokim yordamchisi Iftixor Qahramonov esa o‘nlab oilalarni tadbirkorlikka yo‘naltirib, bandligini ta‘minlashga ko‘maklashadi. Aytishicha, yil boshida mahallada 57 ta tadbirkorlik subyekti bo‘lgan, hozir ularning soni 97 taga yetdi. O‘zi 32 yoshda bo‘lgan bu yigit yangi loyihalarni ishga tushirishni qanday uddalayotgani bilan qiziqdim.

— Bu ishlarni mahalla va shu yerdagi korxonalar, davlat idoralari bilan birgalikda amalga oshiryapmiz, — deydi Iftixor Qahramonov. — Avvalo, ishsiz fuqaroning o‘zi bilan gaplashib, uning qiziqishi, imkoniyatlari, layoqatini o‘rganamiz. Qo‘lida biri hunari bo‘lmaganlarni avval bepul o‘qitib, keyin ishga yo‘naltiramiz yoki shogirdlikka tushiramiz. Agar hunari bo‘lsa, ish boshlashi uchun moddiy ko‘mak beramiz. Masalan, yil boshida mahallamizdagi bir ayol xorijdan qaytib kelib, ishsizligi sabab bizga murojaat qildi. Avval tikuvchilik qilgani, hozir esa tikuv mashinasi yo‘qligini aytdi. Ish boshlashi uchun 20 million so‘m imtiyozli kredit olishiga ko‘maklashdik. Qarabsizki, uyida parda tikishni yo‘lga qo‘yib, singlisi va jivanini ham ish bilan ta‘minladi.

Bunday misollar bisyor. Shu kunlarda maktab bitiruvchilari ham ma‘lum vaqt ishlash istagi bilan chiqadi. Ularga ham ko‘maklashamiz. Mahallamizdagi Bunyodkor ko‘chasida ovqatlanish maskanlari, sartaresh-xonalar ko‘p. Ana shularning rahbarlari bilan gaplashib, yoshlarni shogirdlikka yoki ishga joylashtiramiz. Tadbirkorlar ham yo‘q demaydi, imkon qadar yoshlarni qo‘llaydi. Shuning

yordamlarning barchasi turli tashkilotlarda ko‘rsatilgan. Masalan, nogironlikni belgilash boshqa joyda, ularga nafaqa tayinlash boshqa joyda, yolg‘iz keksalar bilan ishlash boshqa joyda va hokazo. Bugungi kunda ana shularning bari bitta markazda ko‘rsatilib, o‘ndan ortiq barcha xizmatlar avtomatlashtirilgan.

Joriy yilning may oyida ushbu markaz bilan hamkorlikda ishlaydigan “Imkoniyatlar olami” markazi ham tashkil etildi. Hozircha bu markaz yurtimizda yagona hisoblanadi. Muassasada 3 yoshgacha go‘daklar uchun erta aralashuv, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya, shuningdek, kunduzgi parvarish va qarab turish xizmatlari tashkil etilgan. Ayniqsa, kunduzgi parvarish xizmatlari nogironligi bor farzandni tarbiyalayotgan onalar uchun katta qulaylik yaratmoqda. Ular farzandini malakali mutaxassislar ko‘liga topshirib, o‘zi jamiyatga aralashish, ishlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Kunduzgi parvarishga 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Hozirgi kunda 18 nafar bola qamrab olingan. Istalgan fuqaro markaz xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Kam ta‘minlangan oilalarga esa bu xizmatlarning to‘lovi davlat tomonidan subsidiya asosida qoplab beriladi.

— Bu yerda narxlar ancha arzon ekan, bir oylik to‘lovimizni avval xususiy klinikalarga bir kun uchun berardik, — deydi Labzak mahallasida yashovchi Sarvinzo Abduravaliyeva. — Farzandim 1,5 yosh, Daun sindromi bilan tug‘ilgan. Rivojlantirish maqsadida ikki oydan buyon ana shu markazdagi logoped, uqalash muolajalariga olib kelyapman. Yana bir qulayligi, barcha xizmatlar shu yerning o‘zida bor ekan. Kunduzgi parvarishi ham onalar uchun qulay. Har bir bolaga alohida e‘tibor qaratiladi.

### Iqtisodiy o‘shish omili

Inson o‘zidan va oilasidan ko‘ngli to‘lib yashashi uchun doimiy daromadga ega bo‘lishi muhim. Yurtimizda maqsad qilingan kambag‘allikni qisqartirish vazifasi ortida ham shu turibdi. Ko‘proq bo‘sh ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikka keng yo‘l ochish hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirmoqda. Bu borada sanoat hududlarining o‘rni alohida. Masalan, bitta tumanda bitta sanoat zonasi bo‘lsa, qanchadan qancha odamni shu yerning o‘zida bandligini ta‘minlash mumkin.

Chilonzor tumani Beshqo‘rg‘on va Tirsak-obod mahallalar hududida joylashgan sanoat zonasi avvaldan bo‘lgan. Ammo tartibsiz egallab olingan yerlarda infratuzilma va boshqa masalalarida ko‘plab muammolar mavjud edi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 3-iyuldagi qarori bilan sanoat hududi qaytadan tashkil etilib, transport, muhandislik-kommunikatsiya



yerda fuqarolarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatiladi. Hozir shunday markazlar yurtimizning barcha tuman-shaharlarida mavjud.

— Tumanda 9 mingdan oshiq ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bo‘lib, ularga zarur xizmatlarni ko‘rsatish uchun barcha sharoitlar yaratilgan, — dedi Shayxontohur tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori Javlonbek Umarov. — Kun davomida 100 dan ortiq fuqaro murojaat bilan keladi. Bundan tashqari, tumanda 51 ta mahalla bo‘lsa, har birida bittadan ijtimoiy xodim bor. Ularning har biriga kuniga 10 dan ortiq murojaat tushadi. O‘zlari ham mahallalarda uyma-uy yurib, muammolarni o‘rganadi. Avvallari ijtimoiy

va yo‘l infratuzilmasi to‘liq yaxshilandi. Hozir bu manzilga ravon yo‘llar olib boradi, tunda ham chiroqlar hududni yoritib, nurafton qiladi, bir qarashda, sanoat shaharchasiga aylangan.

— Zamonaviy texnologiya vaqtni va ishchi kuchini tejaydi. Texnologiya inson omilisiz ishlash, zamonaviy tizim asosida boshqariladi. Korxonaning 3 ta sexidagi 12 ta ishlab chiqarish

liniyasida ana shunday texnologiya o‘rnatilgan. Qurilma yordamida metall konstruksiyalar va quvurlar — kuniga 500 tonnaga yaqin mahsulot ishlab chiqariladi. Ichki bozordan tashqari, Turkmaniston, Qozog‘iston, Rossiyaga eksport qilinadi. Mahsulotlarga mebel sanoati, qurilish sohasi, gaz va suv ta‘minoti yo‘nalishlarida talab yuqori.

Chilonzor tumani hokimi o‘rinbosari Abduhamid Abduqodirovning aytishicha, mazkur sanoat hududining tashkil etilgani tumanning iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati ortishida muhim yo‘nalishga aylandi. Hududdagi tadbirkorlik rivojiga ham hissa qo‘shyapti. Yangi iqtisodiy loyihalar soni ortmoqda. O‘tgan yili tumanda 356,1 million dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkichni 700 million dollarga yetkazish reja qilingan. Shu yilning o‘zida qiymati 221 million dollarlik 58 ta loyiha ishga tushirilib, 3295 ta ish o‘rni yaratilishi ko‘zlangan.

Bu loyihalarining bir qismi sanoat hududidan joy oladi. Ayni paytda kichik sanoat zonasida korxonalar soni 531 taga yetib, ularda yaratilgan ish o‘rinlari soni 20 mingga yaqinlashdi. Tadbirkorlar ham sanoat zonasi tubdan o‘zgarib, sharoitlar yaxshilangani, yo‘llar ravon bo‘lganidan mamnun.

### Fikrat MADIYEV,

**“BFB Group” kompaniyasi rahbari:**

— Avval, hududda yo‘llar juda yomon edi, hech kim kelishni istamasdi. Hozir har kuni



hamkorlar, xaridorlar keladi. Yo‘llar qanday ravon bo‘lgani, hudud obodligini o‘zingiz ham ko‘ryapsiz. Oxirgi bir yilda elektr toki umuman o‘chmadi. Ya‘ni biz, tadbirkorlarning yanada faol ishlash, rivojlanishimiz uchun kerakli sharoitlar yaratib berildi. Buning evaziga sanoat hududida yangi korxonalar ko‘paydi, ular orqali tumanda qo‘shimcha ish o‘rinlari, soliq to‘lovchilar paydo bo‘ladi. Bu iqtisodiy farovonlikning o‘shishiga olib keladi.

Korxonamizda 40 dan ortiq turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. O‘zbekiston bozoriga doim muqobil yo‘q mahsulotlar bilan yangilik olib kirishga harakat qilamiz. Ko‘plab mahsulotlarimizning nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlarida ham muqobil yo‘q. Masalan, alyumindan yasalgan basseyn qoplamasi faqat bizda chiqariladi. Alyumin qoplamali avtomatik ochib-yopiladigan bio iqlimli ayvonning ham hozircha yurtimizda muqobil yo‘q. Bugungi kunda mahsulotlarimizni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlariga eksport qilaypmiz.

Tadbirkorlarning rivojlanishida asosiy omil qulay ish muhiti, zarur sharoitlar hisoblanadi. So‘nggi yillarda yurtimizda tadbirkorlarga berilayotgan katta imkoniyatlar sabab 8-10 baravar o‘sdik. 15 yilni beri shu sohada faoliyat yuritayotgan bo‘lsak, hozir tadbirkorlar juda erkin deb aytga olaman. Masalan, hozir darvozamiz hammaga ochiq. Oldinlari ko‘rquv, hadik sabab eshiklarimiz yopiq turardi.

Sharoit bo‘lgan joyda rivojlanish ham bo‘ladi. Tadbirkorlar rivojlansa, ko‘proq aholi bandligi ta‘minlanib, farovonligi oshib boraveradi. Davlatimiz rahbari oldimizga qo‘yayotgan asosiy masalalardan biri ham ko‘proq odamlarni ish bilan ta‘minlash bo‘lyapti. Hozir korxonamizda 50 nafar ish o‘rni yaratilgan. Ularning asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yil oxirigacha ish o‘rinlari sonini 100 nafarga yetkazishni maqsad qilganmiz.

\*\*\*

Toshkent shahrining eng gavjum tumanlarida ana shunday gaplar. Bu bir mahalla va sanoat tarmog‘i misolidagi ishlar edi. Kundan kun rivojlanib, chiroy ochayotgan shahrimizning istalgan burchagiga borsangiz, ana shunday yangi islohotlarga ko‘zingiz tushadi. Ularni har kuni eshiyapmiz, ko‘ryapmiz va bevosita o‘zimizda his etyapmiz. Shundan dillarimiz yayrayapti.

**Toshkent shahrining eng gavjum tumanlarida ana shunday gaplar. Bu bir mahalla va sanoat tarmog‘i misolidagi ishlar edi. Kundan kun rivojlanib, chiroy ochayotgan shahrimizning istalgan burchagiga borsangiz, ana shunday yangi islohotlarga ko‘zingiz tushadi. Ularni har kuni eshiyapmiz, ko‘ryapmiz va bevosita o‘zimizda his etyapmiz. Shundan dillarimiz yayrayapti.**

ham yana 28 ta bo‘sh ish o‘rni tashkil etilgan. Maktab yoki oliy o‘quv yurtini tamomlagan yoshlar ana shu ishlarga jalb qilinadi.

Mahallani ta‘mirlash, obod qilish jarayonlarida mashinalar turar joyi masalasi ham yechildi. Oldinlari bu katta muammolardan biri bo‘lgan. Har bitta avtomobil egasi ma‘lum yerlarni egallab olib, aholiga noqulaylik tug‘dirgan. Keng hududlarni tanlab, mashinalar turar joyi qurilganidan keyin bu masala hal bo‘ldi. Hozirgi kunda aholiga va bolalar maydonchalariga noqulaylik yaratmaydigan holda, yana qo‘shimcha joylar qarayapti. Ya‘ni zarurat bo‘lsa, avtomobillar uchun yana alohida joylar qilinadi.

O‘tgan yili mahalla binosining ichida kutubxona tashkil qilingandi. Bu yil bahor oyida esa mahalla hovlisida homiylik asosida kapsula shaklidagi yangi kutubxona ochildi. Bolalar kunduzi shu yerda dars ham tayyorlayapti. Nuroniyalar tomonidan to‘garaklar tashkil etilgan. Xullas, odamlarning vaqtini mazmunli o‘tkazishi, hayotidan mamnun yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga intilyapmiz.

Albatta, bu ishlarning hech biri o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. So‘nggi yillarda yurtimizda shakllangan mahalla instituti va “mahalla yetilligi” faoliyati sabab muammolar shu yerning o‘zida hal etilib, har bir fuqaro bilan alohida ish olib borilyapti. Davlatimiz rahbarining topshirig‘i bilan 2022-yilda

### Boshlanishi 1-betda

**Iroda TOSHMATOVA,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri







## E'tirof

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oqilona islohotlar, ochiq va uzoqni ko'zlagan tashqi siyosat tufayli O'zbekiston nomi jahon hamjamiyatida tobora katta hurmat va e'tirof bilan tilga olinmoqda. Xalqaro maydonda yurtimizning obro'-e'tibori mustahkamlanib, do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilayotgani bugun hech kimga sir emas. Bu yutuqlar nafaqat siyosat va iqtisodiyotda, balki madaniyat va san'at sohasida ham o'zining yorqin amaliy ifodasini topayotir.

Buning yaqqol tasdig'ini joriy yil 3-7-iyul kunlari Xitoyning Chunsin shahrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga (SHHT) a'zo davlatlar kinofestivalida O'zbekiston delegatsiyasining munosib ishtiroki hamda qo'lga kiritilgan katta mukofot misolida ham ko'rish mumkin. Ushbu xalqaro anjuman mamlakatimizning yuksalib borayotgan madaniy salohiyatini, milliy kinomizning yangi nafasini va eng muhimi, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarining mustahkamlanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Mazkur kinofestival "Texnologiya va film — SHHT jozibasi" shiori ostida tashkil etildi. Bu shiorming o'zidayoq zamonaviy dunyoda kino san'atining innovatsion texnologiyalarsiz rivojlana olmasligi, SHHT makonidagi ijodiy hamkorlik ham aynan shu yo'nalishda taraqqiy etishi lozimligiga oid chuqur ma'no mujassam. Festivalning tantanali ochilish marosimi raqamli texnologiyalar, 3D-mepping, yorug'lik dizayni va jonli ijroning uyg'unligidagi haqiqiy san'at va texnologiyalar shousiga aylanib, yig'ilganlarda unutilmas taassurot qoldirdi. 32 milliondan ortiq aholiga ega megapolisda, jahonning o'nlab davlatlari vakillari jamlangan festivalda aynan O'zbekiston delegatsiyasiga faxriy mehmon sifatida alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatilgani, anjuman davomida mamlakatimiz nomi qayta-qayta hurmat bilan tilga olingani, shubhasiz, ikki davlat o'rtasidagi yuksak ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan do'stona munosabatlarning yorqin ifodasidir.

## YANGI O'ZBEKISTON SAN'ATINING ZAMONAVIY QIYOFASI YARATILMOQDA

Shuhrat RIZAYEV, O'zbekiston Kinematografiya agentligi direktori vazifasini bajaruvchi:

— Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar kinofestivalida O'zbekiston delegatsiyasining ishtiroki va erishgan natijalari haqida gapirar ekanman, buni shunchaki madaniy tadbir emas, balki davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ochiq va faol tashqi siyosatning, xususan, madaniy diplomatiyaning amaldagi yorqin ifodasi sifatida baholashga to'la haqqimiz bor. Bugun biz kinoni faqat san'at asari deb emas, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiruvchi, davlatlar va xalqlar o'rtasida ishonch ko'priklarini qura oluvchi muhim strategik vosita sifatida ko'rmoqdamiz.

Festival davomida delegatsiyamizga ko'rsatilgan yuksak darajadagi e'tibor va hurmat, shubhasiz, mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan mustahkam do'stlik munosabatlarining samarasidir. Ikki tomonlama hamkorlik madaniy-gumanitar jahhadda ham yangi bosqichga chiqmoqda. Festival doirasidagi forumda o'tkazilgan muzokaralar buning yaqqol isboti bo'ldi. Biz endi shunchaki film almashishdan aniq, yirik qo'shma loyihalarni amalga oshirishga o'tdik. Xitoylik hamkasblarimiz bilan birgalikda suratga olinayotgan "Meni kutgil" va tariximizning umumiy sahilalarini aks ettiruvchi "Farhod va Shirin" kabi keng miqyosli kinoloyihalar buning dalilidir.

Bularning barchasi o'z-o'zidan bo'layotgan yo'q. Davlatimiz rahbari tomonidan milliy kinematografiyani rivojlantirishga qaratilayotgan ulkan

# “TEKNOLOGIYA VA FILM — SHHT JOZIBASI”

## XITOIDA BO'LIB O'TGAN KINOFESTIVALDA O'ZBEKISTON DELEGATSIYASI MUNOSIB ISHTIROK ETDI



O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari nafaqat festival ishtirokchisi, balki qadrlı mehmonlar sifatida e'tirof etildi. Ushbu anjuman shunchaki filmlar namoyishidan iborat bo'lib qolmadi. Uning doirasida o'tkazilgan maxsus forum SHHT makonida kino sanoatini rivojlantirish bo'yicha strategik muloqot maydoniga, sodda qilib aytganda, "aqliy markaz"ga aylandi. Bu yerda endilikda madaniy almashinuvdan aniq ijodiy natijalarga olib keluvchi tizimli hamkorlikka o'tish masalalari muhokama qilindi. Forumda hukm surgan samimiy va ayni paytda ishchan ruh, kino orqali madaniy

ko'priklarni mustahkamlashdek umumiy maqsad yo'lidagi intilishlar yaqqol sezilib turdi.

Forumda so'zga chiqqan Kinematografiya agentligi direktori vazifasini bajaruvchi Shuhrat Rizayev o'z nutqida davlatimiz

rahbarining e'tibori bilan O'zbekistonda milliy kinematografiyani rivojlantirish uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, sohada ro'y berayotgan tub islohotlar va xalqaro hamkorlik borasida to'plangan tajribalar haqida gapirdi. Bugun o'zbek kinოსining xalqaro maydonda munosib o'rin egallayotgani, mamlakatimizning nafaqat o'z kino bozorini rivojlantirish, balki SHHT doirasida keng ko'lamli ijodiy integratsiya uchun tashabbuskor kuch bo'lishga to'liq tayyor ekani faxr bilan ta'kidlandi.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston tashabbuskor mamlakat sifatida SHHT makonida qo'shma kinoloyihalarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga shay. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda ikkita yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Ulardan biri "Meni kutgil" deb nomlangan zamonaviy drama bo'lib, u millati va madaniyatidan qat'i nazar, har bir tomoshabin qalbiga yaqin bo'lgan sevgi, taqdir va insoniy munosabatlarning murakkabligi haqida

hikoya qiladi. Ushbu loyiha forum doirasidagi taqdimoti ishtirokchilar tomonidan qizg'in kutib olindi va bu ikki buyuk madaniyatning kino san'ati orqali o'zaro hamkorligi ramzi sifatida baholandi.

Ikkinchi loyiha esa xalqlarimiz uchun umumiy bo'lgan qadimiy va go'zal dostonga asoslangan "Farhod va Shirin" nomli keng miqyosli tarixiy-romantik kinoasardir. Bu loyiha shunchaki film emas, balki umumiy tarixiy ildizlarimizni, mushtarak qadriyatlarimizni ekran tilida qayta kashf etishga qaratilgan madaniy hodisadir. E'tiborlisi, ushbu loyiha ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi muloqotlari va o'zaro kelishuvlari natijasida hayotga tatbiq etilayotgani uning naqadar ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "Tirik tarix" dasturi doirasida Tojikiston bilan "Yulduzlar yog'dusi: Jomiy va Alisher Navoiy", Rossiya bilan "Masjid", "Sehrlı ko'zacha", "Marjoniy", Ozarbayjon bilan "Mulla Nasriddin", Vengriya bilan "Arminiy Vambri" kabi loyihalarning amalga oshirilayotgani O'zbekistonning SHHT makonida nufuzli kinomakomni shakllantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarining yaqqol isbotidir.

Festival davomida tomoshabinlarga "Bahorni quvib", "Uzum", "Urush hali tugamagan", "Aktrisa" va "Uyga qaytish" kabi sara badiiy filmlarimiz namoyish etildi.

Bu kartinalar orqali o'zbek xalqining boy ma'naviyati, betakror madaniyati, bugungi kun muammolari va zamonaviy jamiyatning dolzarb jihatları yuksak badiiy mahorat bilan taqdim qilindi.

Quvonarlisi, bu sa'y-harakatlar, ijodiy izlanishlar o'zining munosib bahosini oldi. Festivalning tantanali yopilish marosimida rejissyor Ayub Shahobiddinovning "Bahorni quvib" filmi "Eng yaxshi aktrisa" nominatsiyasida g'olib deb topildi. Filmda bosh rolni ijro etgan tanikli aktrisa Ra'no Shodiyevaning o'ta murakkab, psixologik dramatikmga boy obrazni yaratishdagi yuksak mahorati hakamlar hay'ati tomonidan eng yuqori bahoga loyiq ko'rildi. Bu mukofot — nafaqat iste'dodli aktrisaning, balki butun o'zbek kinoijodkorlari jamoasining, yangi O'zbekiston kino san'atining katta g'alabasidir. Ushbu yutuq so'nggi yillarda mamlakatimizda kinematografiyani rivojlantirishga qaratilayotgan ulkan e'tiborning va yaratilayotgan sharoitlarning yorqin va mantiqiy natijasidir.

SHHT kinofestivalida ulkan g'alabani qo'lga kiritgan O'zbekiston delegatsiyasi a'zolarining Toshkent xalqaro aeroportida soha vakillari, keng jamoatchilik tomonidan tantanali kutib olinishi ushbu muvaffaqiyatning nafaqat soha, balki butun millat uchun muhim voqea ekanini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, Chunsindagi kinofestival va uning doirasida erishilgan yutuqlar hamda strategik kelishuvlar SHHT makonida endilikda nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki yirik madaniy loyihalarning ham yangi davri boshlanayotganidan darak beradi. O'zbekistonning ushbu jarayonlardagi faol va tashabbuskor ishtiroki mamlakatimizning boy san'at an'analari va zamonaviy ijodiy salohiyatini, xalqaro nufuzini mustahkamlash yo'lidagi qat'iy irodasini yana bir bor namoyon etadi. Bu esa, o'z navbatida, millionlab tomoshabinlarni yangi filmlar, yangi kashfiyotlar va umumiy qadriyatlarini tarannum etuvchi go'zal ekran asarlari kutayotganidan dalolat beradi.

## BU MUKOFOTNI OQILA O'ZBEK AYOLLARIGA BAG'ISHLAYMAN

Ra'no SHODIYEVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist:

— Hayotimda unutilmas, hayajonli va baxtli onlar ko'p bo'lgan, lekin Chunsindagi nufuzli kinofestival sahnasida O'zbekiston nomi yangrab, kaminaga "Eng yaxshi aktrisa" mukofoti topshirilishi aytilgan lahzalarni hech narsaga qiyoslay olmayman. O'sha soniyalarda butun vujudim bilan his qildimki, bu faqat mening shaxsiy yutug'im emas, bu — men mansub bo'lgan buyuk xalqning, go'zal Vatanimning g'alabasidir. Bu — yangi O'zbekistonda ayolga, san'atkorga bo'lgan yuksak e'tibor va ehtiromning xalqaro sahnadagi tantanasidir.

Aktor uchun unga bildirilgan ishonchdan, murakkab va zalvorli rolni ishonib topshirishlaridan ortiq baxt yo'q. Film rejissyori Ayub Shahobiddinovdan menga ishongani uchun minnatdorman. Bu sahro ustida ishlash jarayoni mashaqqatli, iztirobli, ayni paytda zavqli kechdi. Men nafaqat bir ayolning, balki uning timsolida minglab o'zbek ayollarining sabrini, matonatini, irodasini ko'rsatishga harakat qildim. Agar shu niyatimga ozgina bo'lsa-da erisha olgan bo'lsam, o'zimni baxtiyor hisoblayman.

Bugungi yutuqlarimizning zamirida Prezidentimizning biz, san'at ahliga otalarcha g'amxo'rligi va e'tibori mujassam. Aynan shu g'amxo'rlik



tufayli biz o'zimizning kerakli ekanimizni his qilyapmiz, ulkan marralar sari intilishga, o'z ustimizda tinimsiz ishlashga kuch topyapmiz. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan sharoitlar bizning ijodiy parvozimiz uchun qanot bo'lmoqda.

Shu fursatdan foydalanib, meni doim qo'llab-quvvatlaydigan muxlislarimga, sevimli xalqimga, oilamga va eng avvalo, bizga ana shunday dorilamon kunlarda, tinch va farovon yurtda ijod qilish imkoniyatini yaratib berayotgan davlatimiz rahbariga chin qalbidan tashakkur aytaman. Bu mukofotni menga cheksiz mehr berayotgan xalqimga, sabr-bardoshli, mehnatkash va oqila o'zbek ayollariga bag'ishlayman.

Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri Toshkent — Chunsin — Toshkent